TARJIMA QILINGAN BADIIY ADABIYOTDA MADANIY O‘ZIGA XOSLIK

Anvarjonova Mehriniso
ADCHTI, tarjima yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Axmedova M.T.**

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy adabiyot tarjimasida madaniy birliklar tarjimasi muammosi va ularning tarjima qilish usullari ko‘rsatilgan. Madaniy birliklarni bir qator guruhlarga bo‘lib, ular tarjimasidagi turli yondashuvlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, madaniy o‘ziga xoslik, urf-odatlar, qadriyatlar, mentalitet, milliy obrazlar, tarixiy tushunchalar, til birliklari.

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема перевода культурных единиц в художественном переводе, а также способы их передачи. Культурные единицы разделены на несколько групп, и раскрываются различные подходы к их переводу.

Ключевые слова: художественный перевод, культурная самобытность, обычаи и традиции, ценности, менталитет, национальные образы, исторические понятия, языковые единицы.

Annotation

This article discusses the problem of translating cultural units in literary translation and the methods of their translation. Cultural units are divided into several groups, and different approaches to their translation are explained.

Keywords: literary translation, cultural identity, customs and traditions, values, mentality, national images, historical concepts, language units.

Badiiy tarjima xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlovchi eng muhim vositalardan biridir. Har bir xalqning adabiyoti uning tarixi, urf-odati, dunyoqarashi va milliy ruhiyatini aks ettiradi. Shu sababli badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish

nafaqat matnni ko‘chirish, balki undagi madaniy mazmunni ham yetkazishni talab qiladi. Ayniqsa, tarjima qilingan badiiy adabiyotda madaniy o‘ziga xoslikni saqlab qolish tarjimon oldidagi eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi.

Madaniy o‘ziga xoslik deganda xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, mentaliteti, milliy obrazlari, tarixiy tushunchalari va til birliklari tushuniladi. Badiiy asarda aynan shu elementlar muallifning milliy ruhini namoyon qiladi. Agar tarjimada bu jihatlar yo‘qolib qolsa, asarning asl mazmuni va badiiy ta’siri kamayadi.

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir til o‘sha xalqning hayot tarzi va tafakkurini aks ettiradi. Shu sababli tarjimon faqat ikki tilni emas, balki ikki madaniyatni ham chuqur bilishi kerak. Tarjima jarayonida ayrim so‘z yoki iboralar boshqa tilda to‘liq muqobilga ega bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatda tarjimon milliy ruhni saqlagan holda mos variant topishga harakat qiladi.

Masalan, o‘zbek tilidagi “mahalla”, “kelin salom”, “to‘y”, “dugona”, “hashar” kabi tushunchalar boshqa xalqlar madaniyatida aynan mavjud emas. Ularni tarjima qilishda oddiy lug‘aviy tarjima yetarli bo‘lmaydi. Tarjimon bu tushunchalarning ijtimoiy va madaniy ma’nosini ham izohlashi zarur.

Badiiy asarlarda madaniy birliklar turli shakllarda uchraydi:

- milliy taomlar;
- kiyim-kechak nomlari;
- urf-odat va marosimlar;
- tarixiy shaxslar;
- maqol va matallar;
- diniy tushunchalar;
- milliy hazil va kinoyalar.

Aynan shu birliklar asarning milliy koloritini yaratadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning O‘tkan kunlar romanida o‘zbek xalqining oilaviy munosabatlari, kiyinish madaniyati va urf-odatlari keng tasvirlangan. Ushbu asarni boshqa tilga tarjima qilishda faqat voqealarni emas, balki milliy muhitni ham yetkazish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, Chingiz Aytmatov asarlarida turkiy xalqlarga xos urf-odatlar, tabiat va milliy ruh kuchli aks etadi. Tarjimon bu ruhni saqlab qolishga harakat qilmasa, asarning ta’sirchanligi kamayadi.

Madaniy o‘ziga xoslikni tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi:

Ba’zi milliy tushunchalarning boshqa tilda aniq ekvivalenti bo‘lmaydi. Masalan, “sumalak”, “navro‘z”, “mahalla” kabi so‘zlar tarjimada izoh talab qiladi. Bular muqobilsiz so‘zlar deyiladi.

Har bir xalqning maqollari uning turmush tajribasini aks ettiradi. Ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha noto‘g‘ri ma’no beradi. Shu sababli tarjimon ma’nodosh variant topishi kerak. Bular maqol va iboralar tarjimasidir.

Hazil va kinoya ko‘pincha madaniyatga bog‘liq bo‘ladi. Boshqa xalq vakili uni tushunmasligi mumkin. Bu esa tarjimada badiiy ta’sirni kamaytiradi. Bularni milliy hazil va kinoyalar tarjimasi turiga kirgizamiz..

Ayrim tarixiy voqealar yoki diniy qarashlar boshqa madaniyat vakiliga notanish bo‘lishi mumkin. Tarjimon bunday hollarda qo‘shimcha tushuntirishlardan foydalanadi.

Badiiy tarjimada tarjimon ijodkor sifatida ham namoyon bo‘ladi. U muallif uslubini, obrazlar tizimini va milliy ruhni saqlagan holda yangi tilda tabiiy matn yaratadi. Mashhur tarjimashunos Eugene Nida tarjimaning asosiy vazifasi “mazmun va ta’sir tengligini yaratish” ekanligini ta’kidlagan. Ya’ni tarjima o‘quvchida asl matndagi kabi taassurot uyg‘otishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, tarjimon nafaqat tilshunos, balki madaniyatshunos ham bo‘lishi lozim. U ikki xalqning urf-odatlari, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini yaxshi bilsa, tarjima sifatli chiqadi.

Tarjima qilingan badiiy adabiyotda madaniy o‘ziga xoslikni saqlash juda muhimdir. Chunki aynan madaniy elementlar asarning milliy ruhini va badiiy qiymatini belgilaydi. Tarjimonning asosiy vazifasi — muallif yaratgan madaniy muhitni boshqa til o‘quvchisiga imkon qadar tabiiy va ta’sirchan shaklda yetkazishdir. Badiiy tarjima xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni rivojlantiradi, millatlar bir-birining qadriyatlari va hayot tarzini chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. TARJIMADA USLUB VA O 'RTA TARJIMANING TA'SIRI
M AXMEDOVA - News of the NUUz, 2024
2. REALIYALAR VA ULARNING TARJIMADAGI AHAMIYATI
Axmedova Muxayyo Tadjimuxamadovna, Abdurashidova Rayyona 2026/1/19.Modern education and development
3. Eugene Nida. Toward a Science of Translating. — Leiden: Brill, 1964.
4. Newmark P. *A Textbook of Translation*. — London: Prentice Hall, 1988.
5. Catford J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. — Oxford University Press, 1965.
6. Salomov G‘. *Tarjima nazariyasiga kirish*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1978